

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAQOL VA MATALLARNING UMUMIY LINGVISTIK XUSUSIYATLARI: ULARNING BARQAROR BIRIKMA SIFATIDAGI O'ZIGA XOS STRUKTURAVIY VA SEMANTIK BELGILARI.

Rasulova Mubina Sherzodbek qizi

Andijon Davlat Chet Tillari Instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi maqol va matallarning umumiy lingvistik xususiyatlarini, ularning barqaror birikmalar, ya'ni frazeologik birlik sifatidagi o'ziga xos strukturaviy va semantik belgilarini taqqosiy tarzda o'rganadi. Maqollar paremiologiya fanida xalq donishmandligining ixcham, metaforik va didaktik shakli sifatida qaraladi. Tadqiqotda maqollarning barqarorligi, ya'ni o'zgarmas sintaktik tuzilishi, alliteratsiya, parallelizm, ritm va ellipsiya kabi stilistik vositalari, shuningdek, metaforik-semantik xususiyatlari(majoziy ma'no, umumlashtirish va madaniy kontekst) tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi SVO (subject+verb+object) va o'zbek tilidagi ega+ikkinchi darajali bo'laklar+kesim strukturaviy farqlar, shuningdek, universal (vaqt, mehnat, axloq) va milliy-xususiy (agrar/ urban) semantik elementlar aniqlanadi. Maqolada lug'at materiallari "Oxford Dictionary of English Proverbs" va "O'zbek xalq maqollari" asosida misollar keltirilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, maqollar ikkala tilda ham barqaror birikmalar sifatida nutqni boyitadi, madaniy ko'priklar vazifasini o'taydi va tarjima jarayonida ehtiyotkorlik talab etadi.*

Kalit so'zlar: *maqol, matal, paremiologiya, barqaror birikma, strukturaviy tahlil, semantik tahlil, taqqosiy lingvistika.*

KIRISH VA NAZARIY ASOSLAR

Maqollar va matallar, ya'ni paremiologik birliklar tilshunoslikning muhim obyekti hisoblanadi. Ular xalq og'zaki ijodining qisqa, ammo teran mazmunli janri bo'lib, avloddan avlodga o'tib hayotiy tajribani umumlashtiradi. Taniqli paremiolog V.Mider maqolni "xalqning hikmat, haqiqat, axloq va an'anaviy qarashlarini metafora, sobit va esda qolarli shaklda o'z ichiga olgan qisqa jumla" deb ta'riflaydi. Darhaqiqat, til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqlarning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzini bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, O'zi va O'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publisistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda. Maqollar barqaror birikma sifatida frazeologiya doirasida o'rganiladi: ularning sintaktik tuzilishi o'zgarmas, lekin tarkibi qoliplashgan bo'lib, so'zlarning

oʻrnini almashtirish maʼnoni buzadi. Matallar esa, xalq ogʻzaki ijodining qisqa, loʻnda va obrazli janrlaridan biri boʻlib, u hayotiy holat yoki fikrni bilvosita, koʻpincha kinoya yoki oʻxshatish orqali ifodalaydi. Matal odatda toʻliq hukm bermaydi, balki fikrni eslatma yoki ishora tarzida bildiradi va maʼlum vaziyatda qoʻllanilib, maʼnosi tushuniladi. Ingliz va oʻzbek tillarida maqollarning oʻrganilishi XX asrdan boshlab kuchaygan. Ingliz paremiologiyasida lotin, yunon va Injil manbalari asosiy rol oʻynasa, oʻzbek tilida esa arab, fors va turkiy folklor taʼsiri kuchli. Ikkala tilda ham maqollar didaktik, metaforik va pragmatik funksiyalarni bajaradi: nutqni jonlantiradi, axloqiy pand-nasihat beradi va madaniy identifikatsiyani taʼminlaydi. Quyida strukturaviy (sintaktik formulalar, stilistik vositalar) va semantik (majoziy maʼno, madaniy yuklama) belgilarni taqqoslash orqali umumiy lingvistik xususiyatlar aniqlanadi.

Strukturaviy xususiyatlar: barqaror birikmalar sifatidagi oʻziga xosliklar.

Maqollar barqaror birikma sifatida sintaktik jihatdan toʻliq gap shaklida boʻlib, oʻzgarmas tuzilishga ega. Ingliz maqollarida koʻpincha SVO tartibi ustunlik qiladi (masalan, “Actions speak louder than words” – “Harakatlar soʻzdan baland gapiradi”). Bu toʻgʻridan toʻgʻri liney ifoda usulini aks ettiradi. Oʻzbek maqollarida esa ega+toʻldiruvchi+kesim tartibi (Turk tillariga xos) kuzatiladi: “Koʻp gap – eshakka yuk” yaʼni koʻp gapirmay ishni qil.

Umumiy strukturaviy belgilaridan biri – alliteratsiya (oʻxshash undosh tovushlar takrori): inglizcha “Where there is a will, there is a way”(w tovushi); oʻzbekcha “Qildan qiyiq qidirma” (q tovushi). Assonans (unli tovushlar takrori): “ A stitch in time saves nine” ([ai] tovushi); “Oʻylamagan oʻkinar” (oʻ unlisi). Ritm va qofiya: “East or west, home is best”; oʻzbekcha “Har bir ishning chamasi bor, har daryoning kemasi bor”. Parallelizm va balans: inglizcha “A bird in the hand is worth two in the bush” (ikkita parallel fraza); oʻzbekcha “Doʻst achitib gapirar, dushman kuldirib gapirar”. Ellipsiya (element tushishi): “Once bitten, twice shy”(toʻliq shakli “once bitten by a dog, twice shy” boʻladi); oʻzbekcha “Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni” (toʻliq shakli “Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni sevar” boʻladi). Sabirova G.X.(2023) taʼkidlaganidek, ingliz maqollarida quyidagi formulalar mavjud: “One X is worth a lot of Y” bu qolip miqdoriy va sifat jihatdan qiyoslashni bildiradi, yaʼni kichik, lekin muhim narsa katta, lekin kamroq foydali narsadan afzal ekanini koʻrsatadi.

- “A bird in the hand is worth two in the bush” (Qoʻldagi bitta qush – butadagi ikkitasidan afzal).

- “One loyal friend is worth a thousand relatives” (Bir sadoqatli doʻst mingta qarindoshdan afzal).

Oʻzbek tilida bu maʼno quyidagi maqollar orqali uzatiladi:

“Nasiyadan naqdi yaxshi”;

“Where there is X, there is Y” bu sabab-natija yoki bogʻliqlikni bildiradi:

- “Where there is smoke, there is fire” (Qayerda tutun boʻlsa, oʻsha yerda olov bor – yaʼni har gapning bir asosi boʻladi).

- “Where there is love, there is pain” (Sevgi bor joyda iztirob ham boʻladi).

“Once X, always Y” bu qolip biror sifat yoki holat doimiy saqlanib qolishini bildiradi va shaxsning xususiyati yoki maqomi o‘zgarmligini ifodalaydi.

- “Once a thief, always a thief” (Bir marta o‘g‘ri – har doim o‘g‘ri).
- “Once a liar, always a liar” (Bir marta yolg‘onchi – doim yolg‘onchi).

O‘zbek tilida bu ma‘no ba‘zan boshqacharoq ifodalanadi:

“Bo‘rining yesa ham, yemasa ham og‘zi qon”;

“O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas”;

“Bukrini go‘r tuzatar”.

Bu barqaror strukturalar maqollarni xotirada saqlash va avloddan avlodga o‘tkazishni osonlashtiradi.

Semantik belgilari va madaniy yuklama

Semantik jihatdan maqollar metaforik va majoziy ma‘noga ega: so‘zma-so‘z ma‘no emas, balki umumlashtirilgan haqiqat ifodalanadi. Ingliz maqollari urban va individualistik kontekstdan kelib chiqadi: “Time is money” (vaqt – pul, samaradorlik); “Don’t cry over spilled milk” (tushgan sut uchun yig‘lama – kichik xatolar uchun pushaymon bo‘lmaslik). O‘zbek maqollari esa agrar va jamoaviy qadriyatlarini aks ettiradi: “Mehnatning tagi rohat” (uzoq muddatli mehnat mukofoti); “Sabrning tagi sariq oltin”(chidamlilik).

Umumiy semantik xususiyat – didaktiklik va universal mavzular (vaqt, mehnat, axloq, oila). Misol uchun, “Erning tuzi – ayol”(o‘zbekcha, oilaviy rol) va inglizcha “A woman’s place is in the home”(an‘anaviy, ammo zamonaviy o‘zgarishlar bilan). Semantik barqarorlik: ma‘no kontekstdan mustaqil, lekin ijtimoiy holatga bog‘liq (pragmatika).

Taqqosiy jihatdan: ingliz maqollari individualism va pragmatizmni (shahar madaniyati), o‘zbek maqollari jamoaviy hamjihatlik va sabrni (qishloq xo‘jaligi) ta’kidlaydi. Lekin universal xususiyatlar (masalan, “Early to bed and early to rise makes a man healthy, wealthy, and wise” va o‘zbekcha ekvivalenti “Erta tur, kech yot – sog‘ bo‘l”) madaniy ko‘prik yaratadi. Ruzikulov E.Sh (2024) ta’kidlagani- dek, metafora orqali ikkala til ham insoniy tajribani ixchamlashtiradi.

Taqqosiy tahlil va barqaror birikmalar sifatidagi umumiy xususiyatlar

Ingliz va o‘zbek maqollari barqaror birikmalar sifatida quyidagi umumiy belgilarga ega:

- Sintaktik o‘zgarmlilik (so‘z o‘zgartirish mumkin emas);
- Metaforik semantika (so‘zma-so‘z emas, majoziy);
- Stilistik bezak (alliteratsiya, ritm);
- Didaktik funktsiya (pand-nasihati);
- Madaniy refleksiya (xalq mentalitetini saqlash).

Farqlar: inglizcha – liney SVO (subject+verb+object) va individualism; o‘zbekcha – EIK(ega+ikkinchi darajali bo‘laklar+kesim) va jamoaviylik. Toshev Z va Asadov A.B. (2023) maqolalarida ta’kidlaganidek, bu farqlar tarjima muammolarini keltirib chiqaradi (ekvivalent nazariyasi: shakliy vs dinamik). Natijada, maqollar lingvistik jihatdan universal vosita bo‘lib, tarjima va xorijiy tillarni o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Paremiologik janrlarni o'rganar ekanmiz, maqollar nafaqat qardosh xalqlar bilan o'xshash, balki qardosh bo'lmagan xalqlarning xalq og'zaki ijodiga yaqin ekanligining ham guvohi bo'lamiz. Chunki ajdodlarimizning avlodlarga aytar so'zi bir. Biroq vaqt o'tishi natijasida yo'qolib borayotgan maqollar ham mavjud. Fikrimcha, ularni tiklab bo'lmaydi. Ular uch usulda iste'moldan chiqadi:

1. Tarixiy hayotning o'zgarishi;
2. Tarixiy so'zlar qo'llangan maqollar;
3. Og'zakilikning ta'sirida.

Yuqoridagi sabablar maqolning yo'qolishiga olib keladi. Ayni paytda maqollarimiz namunalarning boyish manbalari ham yo'q emas. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy hayotning o'zgarishi;
2. Xalqlar o'rtasida aloqalarning rivojlanishi;
3. Allomalar aytgan hikmatli so'zlar orqali.

Millat bor ekan, uning xalq og'zaki ijodi yashaydi. Bu borada qaysi millatda bo'lmasin folklorshunoslarning qilgan mehnatlari beqiyosdir! Taqqosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, universal mavzular (mehnat, vaqt, axloq) va stilistik vositalar ingliz va o'zbek tilida bir xil bo'lsa-da, strukturaviy (SVO vs EIK) va semantik (individual vs jamoaviy) farqlar o'ziga xoslikni aks ettiradi. Ushbu xususiyatlar maqollarni nutq boyligi, tarbiya vositasi va madaniy ko'priq qiladi. Tadqiqot natijasi tarjima nazariyasi, chet tili o'qitish va madaniyatshunoslik uchun amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida maqollarni zamonaviy (reklama, ijtimoiy tarmoq) shakllarini o'rganish istiqbolli yo'nalishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sabirova G.X., Soatboyeva S.M. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvistik xususiyatlari, tuzilish tarkibi // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural va social sciences.* -2023. -№3.

2. Ruzikulov E.Sh. Structural and semantic analysis of paremiological units in English and Uzbek languages: A comparative study based on dictionary materials // *Science and Innovation.* -2024.

3. Toshev Z., Asadov A.B. Inglizcha va o'zbek tilidagi maqollarning muqobillashgan tahlili // *Zamonaviy ta'lim va innovatsiyalar.* -2023.

4. *The Oxford Dictionary of English Proverbs.* -Oxford University Press, 1970(3rd ed.).